

O'QUVCHILAR BILAN INDIVIDUAL ISHLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Siddikova Ozodaxon Avazovna
Farg'on'a viloyati Farg'on'a tumani
56-maktab amaliyotchi psixolog*

ANNOTATSIYA

Ta'lism sifatini oshirish uchun o'quv-tarbiya muassasalari va pedagoglar barchaning e'tibori markazida bo'lishi kerak. Biz yashayotgan asr ham ijtimoiy o'zgarishlar, ham ilmiy-texnika taraqqiyotining asosini tashkil etgan buyuk ta'limg yutuqlari bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: individual ta'limg, pedagogik ta'limg innovatsion klasteri, ilm-fan, ta'limg va tarbiya, pedagogik ta'sir, "Talaba talabaga ustoz, talaba talabaga shogird" tamoyili, innovatsion uslub, fanlar integratsiyasi, metod.

KIRISH

Ta'limg sohasining holati va istiqbollarini o'rganish orqali ta'limg sifatini oshirish dolzarbli kundan kun ortib bormoqda, chunki insoniyat oldida turgan global muammolarni hal qilish uchun yangi kuch bilimlar kerak, ularning yagona manbai inson salohiyatidir.

Yangi O'zbekistonni yangicha dunyoqarash bilan barpo etishda, albatta, yoshlarning o'rni nihoyatda ahamiyatl. Oliy ta'limg muassasalari esa Yangi O'zbekistonni bunyod etadigan malakali, bilim va salohiyatga ega kadrlarni yetishtirib chiqaruvchi maskan vazifasini o'tamoqda.

Oliy ta'limg tizimidagi islohotlar bugungi kunda mavzu va yo'nalish aura (doira)larining keng qatlamini qamrab olayotganligi bilan ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu islohotlar vazirlik, idora vakillari, oliy ta'limg muassasasi professoro'qituvchilari bilan barobar ravishda talabalarning aralashuvini ham ta'minlayotgani hech kimga sir emas. Ushbu ta'minlov talabalardan nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, balki ilmiy sohalarda ham uzlusiz izlanishda bo'lishni taqozo etmoqda.

Taraqqiyotning tamal toshi mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham aynan ilm-fan, ta'limg va tarbiya ekanligi hammamizga ayon. Alalxusus, Yangi

O'zbekistonda ta'limg tizimini tubdan isloh qilish, kompleks rivojlantirish, malakali va bugungi kun talablariga to'la javob beradigan kadrlarni tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar tegishli tartibda yo'naltirilmoqda.

Bugungi yangilanayotgan ta'limg tizimidagi tub islohotlar yangi bosqich sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri

poydevorini faqatgina yangicha dunyoqarashdagi yoshlar qura olishiga urg‘u berilmoqda. Bunga eng yaqin ko‘makchilar esa ustoz va murabbiylar ekanligi kundek ravshan. Ma’lumki, mamlakatimizning ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqilgan. Umuman olganda, ta’lim-tarbiya tizimiga oid Prezidentimiz hamda tegishli tashkilot-idoralar tomonidan qabul qilinayotgan har qanday qaror, farmon va farmoyishlar amalda to‘laligicha ijro qilinmoqda, hayotga tatbiq etilmoqda.

Individual ta’lim bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallahga bo‘lgan tabiiy moyilliklarini to‘liq e’tiborga olish imkoniyati ta’minlangani uchun ham keng ommalashib ulgurdi.

Xo‘sh, bugungi yangilanayotgan ta’lim tizimida individual ta’lim o‘zi nima? Dolzarblik mohiyati qanday? Nega aynan ta’limning bu turi tanlanmoqda?

Bu xususda bir necha manbalarga to‘xtalib o‘tishni joiz deb topdik.

Individual ta’lim - o‘qituvchining o‘quvchiga pedagogik ta’sirini amalga oshiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari shakllaridan biri. O‘qituvchining o‘quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan faoliyati tushuniladi.

Individual ta’lim o‘z navbatida yakka tartibdagi ta’lim bilan tenglashtirish mumkin. Individual ta’lim yo‘nalishining avvalo, o‘quvchi-talabaga har jabhada o‘ziga xos “independent researcher”, ya’ni mustaqil maqomini olishga yo‘l ochadi. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi qadrlash, shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan intilish, talabaning kelajakdagi qiziqish sohasida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, talaba yo‘l qo‘ygan xato-kamchiliklarini ilmiy rahbari orqali aniqlab olishning sharoitlarini yuzaga chiqaradi.

Ta’lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o‘qitishni bildirmaydi, balki shaxsnинг u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqplaydigan xususiyatlar tushuniladi. Individual yondashuvning vazifasi – rivojlanishning individual usullarini aniqlash bolaning imkoniyatlarini har bir shaxsning faolligini ta’minalashdan iborat.

Ta’limni modernizatsiyalashtirish ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish bilangina hal bo‘lib qolmaydi. O‘quvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog‘liq funksiyalari ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi. Bunda o‘quvchi ta’lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta’lim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlarini (erkinlikka intiluvchanlik, mustaqillik, shaxsiy fikrlarning mutlaq o‘ziga xos tizimga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini tasdiqlash ehtiyojining mavjudligi) hisobga olgan holda, o‘quvchiga uning o‘ziga xosligi (individualligi)ni rivojlantirish imkonini berish, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, namoyon etishi uchun

sharoit yaratish lozim. Zero, har qanday o‘quvchi o‘ziga va faqat o‘zigagina xos takrorlanmas tabiat, xarakter xususiyatini faollashtirish va namoyon etishga intiladi.

Har qanday holatda individual ta’lim talabaning o‘quvchi-talabaning kelgusi faoliyati va istiqbolini belgilab olish uchun ta’limdagi barcha sharoitlar talabaga yangi imkoniyat eshiklarini ochishi kerak.

Individual ta’limda talaba va uning rahbari o‘rtasida o‘zaro bir-birini tinglashi, fikr almashinishi, talabaning mustaqil ilmiy faoliyatini yuzaga chiqarish uchun uning fikri va xohishini inobatga olishi kerak deb hisoblaymiz. Ta’limning bu turida fikrlar ochiqligiga e’tibor va shunga hamohang ravishda natijalar ro‘yxati va o‘quv (jumladan, rejalar) jadvalini talaba bilan birgalikda tuzish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Individual ta’limni har bir o‘quvchi-talaba bilan alohida-alohida ishslash deb tushunish ham haqiqatdan yiroq emas. Buni mavzularni o‘zlashtira olmagan o‘quvchi yoki talaba bilan qolgan iqtidorli o‘quvchi yoki talaba do‘sti darajasiga yetishish uchun qilgan individual shug‘ullanish deb izohlash mumkin. Yoki imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ham yakka tartibda o‘z uylarida individual dars o‘tish mumkin. Bunda turli xil metodlar orqali individual shug‘ullansa bo‘ladi. Ammo bir narsani nazardan chetga qoldirmaslik kerakki, individual dars o‘tish jamoaviy holda dars o‘tishni o‘rnini bosa olmaydi. Agar jamoaviy barcha o‘quvchilar bilan dars o‘tilsa, sog‘lom raqobat paydo bo‘ladi, o‘quvchilarning jamoa bilan ishslash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

O‘quvchilarning bir-biridan o‘zishga harakat qilishi, kezi kelganda, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashi va yordam berishiga hech nima teng kelmasa kerak, albatta.

O‘zbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi - mamlakatimizda ilmiy salohiyatni oshirish, oliy ta’lim muassasalarini professor-o‘qituvchilari, jumladan, talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini chuqr va tanqidiy o‘rgangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqishdan iborat.

Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar bugungi kunda mavzu va yo‘nalish aura (doira)larining keng qatlamini qamrab olayotganligi bilan ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu islohotlar vazirlik, idora vakillari, oliy ta’lim muassasasi professoro‘qituvchilari bilan barobar ravishda talabalarning aralashuvini ham ta’minlayotgani hech kimga sir emas. Ushbu ta’minlov talabalardan nafaqat ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, balki ilmiy sohalarda ham uzlusiz izlanishda bo‘lishni taqozo etmoqda.

Qabul qilinayotgan qaror va farmonlarning mohiyatida yurtimizning kelajagini yanada yuksaltirish uchun, mamlakatimizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘sish

uchun asosiy kuch ilm-fanda ekanligini yana bir isbotidir. Shunday ekan, ilmiy faoliyat bilan nafaqat professor-o‘qituvchilar, olimlar, balki, talabalar ham o‘z faoliyatining ajralmas qismi sifatida tashkil eta olsa, o‘ylaymizki, qonun hujjatlarida ko‘zlangan maqsadga tezroq erishamiz. Universitet talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari ikki yo‘nalishda olib borilishi, ulardan biri o‘quv jarayonining ma’lum qismi sifatida o‘quv rejalar, kalendar rejalar va dasturlarga kiritilib, barcha talabalar uchun majburiy hisoblangan o‘quv-tadqiqot ishlari hamda keyingi yo‘nalish - o‘quv rejalaridan tashqari, mashg‘ulotlardan bo‘s sh vaqtida iqtidorli talabalar yo‘li bilan to‘garaklarda, kafedra qoshidagi ilmiy laboratoriyalar, klublarda tashkillashtirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytib o‘tish joizki, talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmuni va tizimi ilmiy-tadqiqot tadbirlari va shakllarining o‘quv jarayoni qonuniyatlariga muvofiq ravishda mutassil bo‘lishini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida ilmiy-tadqiqot ishlari shakl va usullarining kursdan kursga, kafedradan kafedraga, bir fandan ikkinchi fanga, bir xil mashg‘ulotlardan boshqa xil mashg‘ulotlarga izchil tartibda o‘tib borishini, talabalar ilmiy ishlarni bajarish jarayonida o‘zlashtiradigan bilim va malakalarning hajmi astasekin ko‘payib va murakkablashib borishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g’oyalarimiz poydevori”, Toshkent – 2021y. 45-67
2. Muxtarova, S. M. (2022). O‘quvchilarning yozma nutqini o’stirishda yozma ishlarning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 3(5), 1167-1175.
3. Muxtarova, S., & O’G’Li, H. U. A. (2022). Til ta’limida o‘quvchilarning matn yaratish ko‘nikmasini o‘stirish. Science and innovation, 1(B3), 533-538.
4. Turg‘unpo‘latov D. R. Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda yechimlar. Xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya. (pp. 156-158), 2021.
5. Turg‘unpo‘latov D. R., Abdullaeva O.O. O‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda internet tarmoqlari orqali kommunikativ ta’lim darslarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari «O‘zMU xabarlari» Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1/6/1, 27-29-b.
6. Turg‘unpo‘latov D. R., Mo‘ydinov Q.A. Maktab o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda o‘ziga xos uslub hamda imkoniyatlar (sodda va qo‘shma gap mavzusi (9-sinf) misolida) ««Central Asian academic journal of scientific research»». 2022, 2(7), 93-97-b.
7. Davurova G.A. Talabalarning faoliyatida o‘qituvchining o‘rni. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2021 yil maxsus son). 243-246-b.